

8-SINF DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI

I bob. Shaxs, jamiyat va davlat

(9 soat)

Kirish.

1-2. Shaxs.

Shaxs tushunchasi. Odam”, “inson” va “shaxs” tushunchalarining bir-biridan o‘zaro farqi. Shaxsning jamiyatdagi o‘rni. Shaxs va davlat munosabatlarining huquqiy asoslari. Jismoniy va yuridik shaxs.

3. Jamiyat.

Jamiyat. “Jamiyat” va “jamoat” tushunchalari orasidagi farq. Jamiyatning asosiy tarkibiy qismlari va tuzilishi (oilalar, mahalla, jamoat birlashmalari). Inson va jamiyat.

4-5. Davlat.

Davlat. Davlatning paydo bo‘lishi. Davlatning asosiy belgilari. “Ijtimoiy davlat” tushunchasi.

6. Davlat funksiyasi.

Davlat funksiyalari. Ichki funksiyalar. Tashqi funksiyalar.

7-8. Davlat shakllari.

Davlat shakllari tushunchasi. Davlat boshqaruv shakli (monarxiya va respublika). Monarxiyaning turlari (mutlaq, cheklangan, teokratik, noan’anaviy). Respublika boshqaruv shakli (prezidentlik, parlamentar, aralash). Davlatning tuzilish shakli. Oddiy (unitar). Murakkab (federativ, konfederativ). Unitar davlatning belgilari. Federativ davlatning belgilari. Siyosiy tartibot (demokratik va nodemokratik). Demokratik tartibot belgilari.

9. Ijodiy faoliyat.

II bob. Huquq

(7 soat)

10. Axloq va huquq.

Axloq. Axloq hamda huquqning shakllanishi, ularning o‘zaro nisbati. Axloq normalari. Axloq va huquq o‘rtasidagi asosiy farqlar. Huquqning vujudga kelishi. Huquq (obyektiv va subyektiv huquq). Huquq vazifalari.

11-12. Huquq manbalari.

Huquq manbalari (huquqiy odat, yuridik pretsedent, normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro shartnoma). Odat normalari. Qonunlar va qonunosti hujjatlari. Xalqaro shartnomalar. Xalqaro shartnomalarning turlari.

13. Huquq normasi.

Huquq normasi. Huquq normasining tuzilishi. Huquq normasida tarkibiy qismlar (gipoteza, dispozitsiya, sanksiya). Huquq normasining belgilari.

14. Huquq tarmoqlari (sohalari).

Huquq sohasi (tarmog'i). Huquq tizimi. O'zbekiston Respublikasining huquq tizimi. Huquq institutlari. Moddiy huquq sohalari va ularni tartibga solish. O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligiga ko'ra, protsessual huquq sohasi.

15. Huquqiy munosabatlar.

Huquqiy munosabat. Huquqiy munosabatlarning tarkibiy qismlari (obyekt, subyekt, subyektiv huquq va yuridik majburiyat). Huquqiy munosabat ishtirokchilari. Huquq layoqati va muomala layoqati. Subyektiv huquq va yuridik majburiyat.

16. Ijodiy faoliyat. Nazorat ishi-1.**III bob. Huquqbuzarlik va yuridik javobgarlik**

(10 soat)

17-18. Huquqiy xulq-atvor.

Huquqiy xulq-atvor. Huquqiy xulq-atvor xususiyatlari. Huquqiy xulq-atvor turlari. Huquqiy xulq-atvorning shakllari.

19-20. Huquqbuzarlik.

Huquqbuzarlik. Huquqbuzarlikning belgilari (Ijtimoiy xavflilik, huquqqa zidlik, ayblilik, jazoga loyqlik). Huquqbuzarlik turlari.

21-22. Yuridik javobgarlik.

Yuridik javobgarlik. Yuridik javobgarlik turlari (intizomiy javobgarlik, fuqaroviy jazo, ma'muriy jazo, jinoiy jazo).

23-24. Yuridik javobgarlikning oqibatlar.

Jazo va uning turlari. Jarima. Muayyan huquqdan mahrum qilish. Majburiy jamoat ishlari. Axloq tuzatish ishlari. Ozodlikni cheklash. Xizmat bo'yicha cheklash. Intizomiy qismga jo'natish. Ozodlikdan mahrum qilish. Ma'muriy jazo turlari. Intizomiy jazo turlari.

25-26. Ijodiy faoliyat.

IV bob. Voyaga yetmaganlarning huquq va burchlari

(8 soat)

27. Fuqarolik qonunchiligida voyaga yetmaganlarning huquqlari.

Fuqarolik huquqi. Voyaga yetmaganlarning fuqarolik huquqbuzarligi. Voyaga yetmaganlarning fuqarolik huquqbuzarligi uchun javobgarlik. Muomalaga to'liq layoqatli. Emansipatsiya. Voyaga yetmaganlar bilan tuziladigan shartnomalar va uning asosiy shartlari.

28. Jinoyat qonunchiligida voyaga yetmaganlarning huquqlari.

Jinoyat va uning belgilari (jinoyat obyekti, jinoyat subyekti, jinoyatning subyektiv tomoni, jinoyatning subyektiv tomoni). Jinoyatning boshqa huquqbuzarliklardan farqlari. Voyaga yetmaganlar jinoiy javobgarligining umumiy qoidalari. Voyaga yetmaganlarga nisbatan qo'llaniladigan jazo turlari.

29-30. O'zbekiston Respublikasida voyaga yetmaganlarning javobgarligi.

Voyaga yetmagan ayblanuvchi, gumon qilinuvchini tergov qilish shartlari (so'roq qilish tartibi), isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar. Ma'muriy huquqbuzarlik.

Voyaga yetmagan ayblanuvchilarga qo'llaniladigan ehtiyot choralari. Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni sudga ko'rish tartibi.

31-32. Oila qonunchiligida voyaga yetmaganlarning huquq va majburiyatlari.

Bolaning oilada yashash va tarbiyalanish huquqi. Vasiylik va homiylik. Oilada bola manfaatlari. Oilada voyaga yetmaganlarning mulkiy huquqlari. Bolalarning turar joyga bo'lgan huquqi.

33. Mehnat qonunchiligida voyaga yetmaganlarning huquqlari.

Mehnatga oid huquqiy munosabatlarda voyaga yetmaganlarning huquqlari. Voyaga yetmaganlarning mehnatiga haq to'lash, ularning ish vaqti va dam olish vaqti.

34. Ijodiy faoliyat. Nazorat ishi-2.